



TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OLIY TA'LIMNING O'RNI

Turaboyeva Feruza Qo'shmat qizi
Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi
Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi
FarDU talabalari

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08-June 2023 yil

Ma'qullandi: 10-June 2023 yil

Nashr qilindi: 14-June 2023 yil

KEY WORDS

*oliy ta'lim, oila, hayot, talabalar
hayoti, pedagog, qadr-qimmat,
kelajak avlod, farzand tarbiyasi,
mahalla, o'quv yurti, jamiyat.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada biz talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda oliy ta'limning o'rni mavzusida o'z shaxsiy mulohazalarimizni bayon qilamiz va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilamiz.

“Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillardan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota mehri, ona mehri, orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit milliy mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi”. Shunday ekan yosh avlodni ota-bobolar va onalar o'gitalari, milliy qadriyat asosida oilaviy hayotga tayyorlash oliy ta'lim oldida turgan muhim va mas'uliyatli vazifadir. Talabalik davri 17-22 yoshni o'z ichiga oladi. “Talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan holda va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushunilida”.

Mazkur davr fuqarolik va psixologik yetuklikka erisha borish jarayonidir. Chunki bu davrda yetuk shaxsga doir ijtimoiy huquq va burchning butun tizimi egallab olinadi. O'z-o'zini anglab olishning rivojlanishi asosida yoshlarning kasb tanlash va uni egallashga oid shaxsiy hayot tarzlari shakllana boradi. Ijtimoiy yetuklikning boshlanishida, ayniqsa qonunlarni bilish va unga bo'ysunish taqozo etadi. Agar bu davrda yoshlarga ijtimoiy ta'sir susaysa, ular turmush me'yorlariga, ota-onaga zid hatti-harakatlar qilishlari mumkin. Chunki turli yovuz va qabih niyatli kuchlarning hatti-harakatlari, noto'g'ri g'oyalari yoshlarimiz ongi va qalbiga ta'sir etib, har qanday usullar bilan o'z tomonlariga og'dirishga harakat qiladilar va ba'zi yoshlar e'tiqodi sustligi, qonun va uning talablarini bilmasliklari tufayli bunday yot ta'sirlarga berilib ham ketadalar. Shuning uchun ham milliy qadriyatlar yoshlarda mas'uliyat va burch hissini anglab olishda muhim hisoblanada.

O'z oilasidan uzoqqa o'qishga ketgan yosh yigit-qizlar dastlab talabalik davrida paydo bo'lgan murakkab vaziyatlar, mustaqil hayot oldida esankirab qolishlari mumkin. Chunki talabalarning dastlabki kunlarida kayfiyatning ko'tarinkiligini, zavq-shavq tuyg'usini yoshlarga baland ruh bersa, kundalik turmush urinishlari, o'qish jarayonidagi muayyan

qonun-qoidalar, qiyinchiliklar ta'sir etib, ular ruhiyatida ba'zida tushkunlik ro'y beradi. Natijada ichki va tashqi omillar ta'sirida talaba ruhiyatida ishonchsizlik, umidsizlik kabi his-tuyg'ular paydo bo'lib, biz yuqorida aytganimizdek, yot g'oyalar ta'siriga berilishi, noto'g'ri yo'lga kirib ketishi mumkin. Jumladan, 17-19 yoshda talaba hali o'z xulqi, hatti-harakatini boshqara olmaganligi, hayotiy tajriba yetishmasligi tufayli ko'p masalalarda xatoliklarga yo'l qo'yishi, ehtiyotsizlik holatlari kuzatiladi. Ularda o'z faoliyatini tahlil, nazorat qilish, baholash, tanqid qilish kabilar yetishmaydi. Shuning uchun ham ular faoliyatida ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Lekin yuqori kurslarga o'tgan sari ularning ijodiy tafakkuri, his-tuyg'ulari, axloqiy hislari, o'z-o'zini baholash asosida e'tiqodi ham shakllana boradi.

Yuqoridagi psixologlarning fikriga ko'ra, yetuklik davri 18-20 yosh bo'lib, fiziologik imkoniyatlar yuksak darajada rivojlanadi. Inson a'zolarining tashqi ta'siriga javobi, qon bosimining optimal darajasi ortadi, qon kislorod bilan to'yinadi. Insonda o'quvlikning qulay imkoniyatlari paydo bo'ladi. O'quvaxborotni qabul qilish, eslash va xotirada saqlab qolish qobiliyati shakllanadi. Ana shu davrdan insonda psixologik funksiyalarning o'sishi boshlanib, o'quvlik imkoniyatlari pasaymaydi. Insonning yetuklik davri quyidagi qonuniyatlar bilan farqlanadi:

1. Turli funksiyalarning rivojlanishi bir tekis va bir vaqtda amalga oshmaydi. Masalan, xotira bir bosqichda esa tafakkur amalga oshadi, tez sur'atlar bilan o'sadi.
2. Yoshiga qarab turli funksiyalar o'zaro bog'liq holda muvofiqlashgan xususiyat kasb etadi.
3. Yetuk inson aqlining funksional o'sish darajasi yosh evolyusiyasining har xil bosqichida etarli darajada yuqori bo'ladi.
4. Mazkur funksiyalar dinamikasida hech qanday pasayish bo'lmaydi.
5. Yetuklik davrida o'quvlik kamaymaydi.

Demak, yoshlik davrida o'spirinlikda tarkib topgan eng yaxshi xislatlar to'liq shakllanadi. Bu, ayniqsa, kasb tanlashda namoyon bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabida va oilada to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirilgan yoshlar institutda o'zlari tanlagan kasblarining etuk mutaxassisi bo'lish uchun harakat qiladilar, o'qib-o'rganadilar. To'g'ri kasb tanlash oilaviy hayotni ham moddiy, ham ma'naviy tomondan ta'minlashga yordam beradi. Bu insonning kelajagini belgilashda katta ahamiyatga ega. Har bir kasb, albatta, insonning qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, talaba malakali mutaxassis bo'lib etishadi. Agar ota-onaning hohish-istagi bilan o'zi befarq qaragan holda yondashsa, bunda kelgusi hayotida qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Shuning uchun kasb tanlashda yoshlar o'zlarining qobiliyatlari, kasb layoqatliliklari, moddiy va ma'naviy jihatlarini hisobga olish muhim. Aks holda noto'g'ri tanlagan kasbini o'zgarishga yoki yillab o'zi sevmagan kasb bilan majburan shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Ana shunday sharoitda, eng avvalo, oila moddiy va ma'naviy qiyinchiliklarga duch keladi. Bu jamiyatga ham ham ta'sir etadi. Chunki har bir mutaxassisni tayyorlash uchun davlat tomonidan katta mablag' sarflanadi. Shuning uchun ham talaba yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, to'g'ri kasb tanlash, yetuk mutaxassis bo'lib etishish yoshlarda barqarorlikning ta'minlanishida eng muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Yoshlar o'zi tanlagan kasblariga mos bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Kasbga moslik mehnat faoliyati jarayonida shakllanib, uning xulqi ham tarkib topa boradi. Ba'zi hollarda to'g'ri kasb tanlanadi va u yoshlarning qiziqishi, qobiliyatiga muvofiq keladi. Ammo hududiy

muammolar bilan bog'liq holda yoshlarning mazkur kasbda ishlash imkoniyati bo'lmaydi. Bunday holda mazkur kasb egasi o'z irodasi va qobiliyatini ishga solib, qiyinchiliklarni yengib o'tishi zarur. Talaba yoshlarni milliy qadriyatlar asosida oilaviy hayotga tayyorlashda ularning individual muomala me'yorlarini o'zlashtirib olishlari ham katta ahamiyatga ega. Zero, insonning xulq-atvori, ma'naviy qiyofasi uning muloqot madaniyatini egallab olganligiga ham bog'liqdir.

Muloqot kishining ichki va tashqi olamini namoyon yetuvchi o'zaro munosabatlarning muhim shaklidir. Avvalo, talabalar o'z jamoalari, guruhlari va o'zaro bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar. Shuningdek, turli marosimlarda, transport, jamoat joylarida muloqotga kirishganlarida uning me'yorlariga, ya'ni milliy va umuminsoniy muloqot qoidalariga rioya qilishlari talab etiladi. Muloqot me'yorlari axloq-odobga oid hadislarida o'z ifodasini topgan. Azal-azaldan ota-ona munosabatlaridagi sabrlilik, oilaviy muammolarini birgalikda hal etish, farzandlar, qo'ni-qo'shnilariga bo'lgan samimiy muomaladan farzandlar andoza olganlar.

Muloqot madaniyatida dastlabki mezon xushmuomalalik hisoblangan. Xushmuomalalik haqida buyuk mutaffakirlarimiz ibratli fikrlarini bayon etganlar. Masalan, Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday deydi: Ul ko'ngilgakim qattig' so'zdan reshdek bo'lg'ay, Achchiq til zahr olud neshdek bo'lg'ay. Talabaning asosiy vaqti tahsil olish va boshqa jamoat tishlarini bajarish bilan o'tadi. U dastlab o'qituvchilari, qolaversa, tengdoshlari, maslakdoshlari, rahbarlar bilan muloqotga kirishadi. Talaba bilan qo'pol munosabatda bo'lgan shaxs uning qalbida og'ir iz qoldiradi. Samimiy muloqot sog'lom muhitni paydo qiladi. Agar uning aksi bo'lsa, oilada ham, o'quv maskanida ham nosog'lom muhit vujudga keladi. Jamoa orasida, turli tadbirlarda so'z chiqqanda ham so'zlashish madaniyatiga rioya etish insonning obro'sini oshiradi. Shuning uchun har bir kishi bilan so'zlashganda, uning so'zlariga quloq tutib, o'ylab gapirishi, kattalarning so'zlarini oxirigacha eshitishi madaniyatlilik hisoblanadi. Bularning barchasi talabalarga ta'lim-tarbiya jarayonida tushuntirib boriladi va ular turli joy, vaziyatlarda har xil toifadagi odamlar bilan muloqot qilishni o'rganadilar.;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. Science and innovation, 1(B3), 40-46.
2. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. Journal of new century innovations, 14(3), 33-36.
3. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Journal of new century innovations, 4(1), 52-59.
4. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.
5. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).
6. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
7. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.

8. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 162-165.
9. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 166-169.
10. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 158-161.
11. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.
12. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.
13. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. PEDAGOGS jurnali, 9(3), 4-7.
14. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. The Peerian Journal, 5, 192-194.
15. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.
16. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 500-502.
17. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 59-60.
18. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.
19. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Science and Innovation, 1(4), 136-138.
20. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Journal of new century innovations, 11(1), 186-189.